“DEVONI LUG‘ATI TURK” ASARIDA RANG IFODASI

Madrimova Maftuna Otabek qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti
Filologiya va san‘at fakulteti 231-amaliy filologiya guruhi talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19693570

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilayotgan oq, qora, qizil kabi rang leksemalari o‘rnida “Devoni lug‘ati turk” asarida qanday leksemalardan foydalanganligi haqidagi izlanishlar tadqiq qilindi. Shu qatorda rang sifatlarining ma’no qirralariga ham to‘xtalib o‘tildi. Ushbu leksemalar bugungi adabiy tildagi leksemalar bilan qiyoslab o‘rganilib, zaruriy xulosalar chiqarildi.*

Kalit so‘zlar: *Devoni lug‘ati turk, rang-tus sifatlari, rang bildiruvchi so‘zlar, leksema, ma’no, ma’no ko‘chishi.*

Аннотация. *В данной статье проведено исследование того, какие лексемы использовались в произведении «Девони Лугати Тюрк» вместо цветовых лексем, таких как белый, черный и красный, которые используются в современном узбекском литературном языке. Кроме того, были затронуты и смысловые аспекты цветовых качеств. Эти лексемы были изучены в сравнении с лексемами современного литературного языка и сделаны необходимые выводы.*

Ключевые слова: *словарь турецкого языка Девони, цветные прилагательные, слова, обозначающие цвет, лексема, значение, передача значения.*

Abstract. *In this article, instead of the color lexemes used in modern Uzbek literary language, such as white, black, and red, researches were conducted on what lexemes were used in the work "Devoni Lug‘ati Turk". These lexemes were studied in comparison with the lexemes of today's literary language, and the necessary conclusions were drawn.*

Key words: *Devoni Turkish dictionary, color adjectives, words denoting color, lexeme, meaning, transfer of meaning.*

Kirish va dolzarbligi. Biz yashab turgan hayotimiz rango-ranglikka asoslangan. Rang bu bizning turmush tarzimizning ajralmas qismiga aylanib qolgan. Ranglar bizning xarakterimiz, qiziqishlarimizdan tortib, kundalik hayotimiz haqida so‘zlab beruvchi vosita ham hisoblanadi. Rang bu estetik didning ajralmas bo‘lagidir. Turli davrlarda ham rang haqidagi qarashlar ko‘pincha bir xil tarzda bo‘lgan. Ammo rang leksemalari har davrda har xil tarzda ifodalangan.

Rang kishilarning kundalik hayotiy munosabatlariga ham ta’sir o‘tkazganligini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asaridagi mana bu maqol tasdiqlaydi:

“Qilnu bilsa qizil kizar,
Japanu bilsa jashil kizar.”[1]

Xotinlar eri bilan suhbat istaganda qizil ipakli kiyadi, yalinish va xushomadgo‘ylik vaqtida yashil kiyim kiyadi. Xotinlar haqidagi bu maqol maqsadga erishish, yoqimli muomalada bo‘lishni eslatish maqsadida ishlatiladi”

Metodlar va o‘rganilish darajasi. Bugungi adabiy tilimizda oq, qizil, qora, ko‘k, zangori, sariq, yashil, malla, pushti, moviy, qirmizi, safsar, qo‘ng‘ir, alvon (rang-barang), golos, gungurt, nafarmon, ol, oq-qora, jigarrang, kulrang, rang, zalg‘aldoq, tilla rang, gunafsha rang kabi so‘zlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Bunday so‘zlar rang-tus sifatlari deb yuritiladi. Ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zbek tilshunosligida M.Sodiqova, R.Qo‘ng‘irov, Z.Pardaev, H.Tojimatov kabi olimlar tomonidan bir qismi maxsus tadqiq etilgan.

Quyida “Devonu lug‘ati turk” asaridagi rang ifodalovchi leksemalarni ko‘rib chiqamiz. Eng avvalo rang leksemasining o‘zi “Devoni lug‘ati turk” asarida qanday nomlar bilan atalganiga to‘xtalib o‘tamiz.

Urumuen (156.I) - bo‘yoq, rang. Ushbu so‘z qadimgi turkiy tilda bo‘yoq, rang ma’nosida, ot so‘z turkumi sifatida ishlatilgan. Bundan Tashqari *To‘* (224.III) so‘zi ham rang leksemasini bildirgan. Masalan: To‘dash tonlar-bir xil rangli to‘nlar. Bu leksema yana ot ranggi, turi ma’nosida ham ishlatilgan. M: Ating ne to‘lo‘q- Oting qaysi rangda. Bular qatorida *O‘ng* leksemasi ham rang, bir narsaning rangi sifatida qo‘llanilgan. Jashil o‘nluk ton-yashil rangdagi to‘n

Asarda rang sifatlatlariga qo‘shib aytiladigan ba’zi leksemalar ham rang degan ma’noni beradi. Bularga *neng, jo‘vo‘t* so‘zlarini kiritish mumkin. Ushbu leksemalar “Devonu lug‘ati turk” asarida ko‘k, sarig‘ kabi so‘zlar bilan birga qo‘llanilib keladi. *Kok neng-ko‘k rang, kok jo‘vo‘t-ko‘k rang*. *Jo‘vo‘t* so‘zi yumshoq W bilan jo‘wo‘t shaklida ham talaffuz qilinadi. Jo‘vo‘t so‘zi umumiy ranglarning hammasi uchun umumiy so‘z bo‘lib, so‘ng unga ayrim ranglarni anglatuvchi so‘zlar qo‘shilib farq qilinadi. *Qirtish (426. I*) - odam va boshqa narsalar yuzining rangiga nisbatan ishlatilatilgan. Masalan: Ko‘rukluk qirtishlig‘ kishi- yuzining rangi chiroyli odam.

Yuqoridagi rang leksemasining Qoshg‘ariy zamonida qanday ifodalanganligini ko‘rib o‘ttik. Quyida endi ranglarning o‘ziga to‘xtalamiz.

Asarda *ko‘kshin* (193. I) - ko‘k rang ma’nosida ishlatilgan. Ushbu leksema moviy rang ma’nosini bergan. Ba’zida bu leksemaning o‘zi osmon, falak ma’nosida ishlatilgan. Quyida asarda ushbu leksemaning qo‘llanilishiga doir misollar berilgan.

Ko‘kshin bulut o‘trushti
Qajg‘uk bo‘lib o‘ngishur

Ma’nosi: osmonda ko‘k bulutlar paydo bo‘ldi. Ular qayiqlarda o‘ynaganga o‘xshab suzishadi.[2] Bu leksemaning yana boshqa ko‘rinlarishi ham mavjud.

Ko‘kshin neng-osmon rang. Bu leksemaning oldingisidan farqi bu so‘zda neng so‘zi ham qo‘shib aytilgan. Agar yuqoridagi leksemaga tayanadigan bo‘lsak bu so‘zga qo‘shilgan neng so‘zi ham turkiy tilda rang ma’nosini bergan. Qoshg‘ariy asarida Kok (146.III) va Kok jo‘vo‘t (177. III) so‘zlari ham ko‘k rangi sifatida ishlatilgan. *Kok*-ko‘k rang. Kok ton- ko‘k to‘n. Shuningdek osmon rangli har bir narsaga ham bu so‘z qo‘llaniladi. *Kok jo‘vo‘t*- to‘q ko‘k

Bugungi kunda sariq rangini anglatuvchi leksemalar “Devoni lug‘ati turk” asarida *Sarig‘ va Atg‘ak* (140. I) sifatida ishlatilgan. *Sarig‘*- sariq rang. *Sarig‘lig‘* – sariqlik, narsalar sariqligi. *Atg‘ak*- qayg‘udan yuzning sarg‘ayishi. O‘g‘uz tilida esa yuzi sariq odamni *Etrak* deb atashlari haqida ham ushbu asarda to‘xtalib o‘tilgan. *Sarig‘ jo‘vo‘t*- sariq rang.

Ranglar ichida jo‘shqinlik, hayot timsolini anglatuvchi qizil rang asarda *Qizil jo‘vo‘t (177. III), Qizg‘ul va Qizlaq (437 I), bajin* so‘zlari bilan ifodalangan. *Qizil jo‘vo‘t*- qizil rang, qizil bo‘yoq. *Qizg‘ul*-qizilidan oqi kuchli va qora jigarranglari orasidagi rang. Qizg‘ul at - qizilidan oqi kuchli va qora jigar ranglari orasida bo‘lgan bir rangli ot. *Qizlaq*-qizil rang ma’nosida. Bu so‘z boshqa so‘zlarga qo‘shilib keladi. Masalan: ko‘ti qizlaq- qizilishton; *Bajin*- to‘q qizil. Kelinchak guli deyilgan gul rangidagi har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi. Maqolda shunday qo‘llangan:

Qilnu bilsa, qizil kezar,
Jaranu bilsa jashil kezar.

Ma’nosi: xotin noz-u karashmani bilsa, qizil rang shakli kiyadi, yoqishni bilsa, ko‘k ipakli kiyadi ya’ni er hurmatiga sazovor bo‘lgan kiyim kiyinadi.

Bular qatorida yana *Jipkin va Jipkil(44.III)* -to‘q qizil arg‘uvon rangidagi narsa, *Boz (134.III)* - kulrangni bildiruvchi leksemalardan ham foydalanilgan. *Jipkil*- arg‘uvon rangni ifodalovchi leksema. Jipkil ton-arg‘uvon rangli to‘n. Yuqorida berilgan jipkin va jipkil leksemalarining har ikkisi ham arg‘uvon rangni ifodalash uchun ishlatilgan. *Boz at*-kulrang ot. Ushbu rang haqida asarda berilishicha bu rang nozik, nafis yoqimli emas deb ta’riflanadi, ya’ni bu rangni uncha odam xush ko‘rmaydi. Bugungi kunda ham yoqimsiz, oqarib ketganlik ma’nolarida bo‘zarmoq so‘zi ishlatiladi. Bundan tashqari qadimgi turk tilida oq va qizil rang orasidagi rangda bo‘lgan har bir hayvonga ham bu so‘z qo‘llaniladi. Boz qoy- kulrang qo‘y.[3]

Qo‘nur (108. I) -qo‘ng‘ir (xira, och jigarrang). Bu rangdagi har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llaniladi. Devonda quyidagi misol uchraydi: qo‘nur qoj- qo‘ng‘ir qo‘y.

Yuqoridagi leksemalarning barchasi “Devonu lug‘atit turk”ning turli har bir jildlarida uchraydi. Bu leksemalar faqat rang ma’nosinigina bildirib qolmasdan, aynan shu so‘zlarning o‘zi yana boshqa ma’nolarda ham ishlatilgan. Masalan: Qo‘nur

so‘zi yana bo‘g‘iq degan ma’noni ham beradi. Asarda quyidagicha uchraydi: Qo‘nur o‘n-bo‘g‘iq ovoz[4].

Bugungi adabiy tilimizda rang ifodalovchi sifatlar faqat rang ma’nosinigina berib qolmasdan, turli kasalliklar, yoki boshqa ma’nolarda qo‘llanilishi bizga ma’lum. Masalan xalq orasida “sariq bo‘libdi”, “qora ish” kabi birikmalar quloqqa chalinadi. Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi sariq leksemasi kasallikka, qora so‘zi esa yomon ishlarga nisbatan ishlatilgan. Bunda rang ma’nosi kasallik ma’nosiga ko‘chgan, ya’ni ma’no ko‘chish hodisasi paydo bo‘lgan. Boshqa tillarda ham rang ifodalovchi sifatlar xuddi yuqoridagi tarzda ishlatilgan. Masalan ingliz tilida berilgan quyidagi maqolda ham qora va oq aslida rang emas, inson hayoti davomida qilgan amallariga, yomonlikni yuvgan bilan yaxshi bo‘lib qolmasligiga ishora berilgan.

Wash a black a moor white-qorani yuvgan bilan oq bo‘lmas

Devonda ham shu kabi leksemalarning ko‘pchiligi faqat rang ma’nosinigina berib qolmasdan boshqa ma’nolarda ham qo‘llanilgan. Masalan quyidagi misollarda *qora* sifatining rang ma’nosidan tashqari boshqa ma’nolarda kelishini ham kuzatish mumkin. Xususan “Devonu lug‘ati turk”da quyidagi misralar uchraydi.

Bermish sening bil
Jalinuq tapar qarinqa
Qalmish tashar azinning
Kirsa qara o‘runqa

Bilgilki birovlarga berganing yoki o‘zing yeganinggina seniki, chunki odam qorni uchun xizmat qiladi. Odam go‘rga kirgach, qolgan mol boshqanikidir. Ushbu o‘rinda kelgan *qara o‘run* so‘zi aslida qorong‘i yer-go‘rni ifodalash uchun ishlatilgan.

Yana bir o‘rinda esa *qara bash* leksemasi keltirilgan bo‘lib bu so‘z qullarga nisbatan ishlatilgan. Demak qullar hayotining og‘irligi, ularning birovga qaramligi qara so‘ziga bosh so‘zini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan. Asarda berilgan qora leksemasi bilan birikib rang asosida shakllangan leksemalar ham talaygina. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

Qara qush- qirg‘iy. Ushbu qush rostdan ham qora rangda bo‘lgani uchun unga aynan rangidan kelib chiqib nom berilgan.

Qara jag‘-neft, qora yog‘
Qara tupraq- qora yer

Oq rang leksemasi “Devonu lug‘atit turk”da pes kasalligi ma’nosida ham kelgan o‘rinlar mavjud.

Ala- ola, oq. Tanasida oqi bor odamga nisbatan bu so‘z qo‘llaniladi. (117. I)

Badiiy asarlarda esa mashuqa yuzi ko‘proq qizilga qiyoslangani kabi “Devoni lug‘ati turk”da ham yor yuzi qizilga qiyoslangan:

Bulnar meni ulas ko‘z
Qara mengiz qizil juz
Andin tamar tugal tuz
Bulnap jana ul qachar

Ma’nosi: bu mast ko‘zli porloq qizil yuzidagi yoqimli qora xoli bilan meni asir qildi.Ushbu baytda qizil leksemasining porloq ma’nosida kelishiga guvoh bo‘lamiz.

Qatunsini chog‘iladi
Teno‘t brgin jag‘iladi
Qani aqib jag‘iladi
Bojun suvin qizilsag‘di

Qatunsini degan joyda yashovchilar tangutlar bilan jang qiladilar. Qatunsini xalqi baqirib, baqirib, tangut xalqi va ularning begi bilan dushmanlashdi, hattoki qonlari suv sharillagandek oqdi. Bo‘yinlar qizil suv bilan ya’ni qon bilan bo‘yaldi. Yuqorida misrada qo‘llangan *qizil suv* birikmasi qon ma’nosida ishlatilgan.

Qoshg‘ariy o‘z asarida yashil leksemasidan ko‘proq tabiatni ta’riflash uchun foydalangan.

Qizil, sariq arqashib,
Jerkin, yashil yuzkashib,
Bir-bir kero‘ yo‘rkashib,
Yalinguq ani tanglashur.

Ushbu misrada yashil rangining yasharish, nafosat ma’nosida ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin. Qizil, sariq gullar bir-biriga suyanishib, yashil rayhonlar bir-biri bilan o‘ralishib ko‘rinadi. Ularni ko‘rgan kishi tang qoladi, hayron qoladi. Bu baytda tabiatdagi bir-biridan go‘zal, insonga zavq-shavq bag‘ishlovchi gullarning go‘zalligi ta’riflangan. Ularni ko‘rgan kishining bahri-dili ochilishi tasvirlangan.

Jaratti jashil jash,
Savurdi o‘rung qash,
Tizildi qara qush,
Tun, kun uza yurkanur**.**

Osmonni ta’riflaydi: tangri osmonni feruza rangida ko‘m-ko‘k qilib yaratdi. Yulduzlar bilan bezadi. Uzukka ko‘z qo‘ygandek, qosh oq uzuk uchun ishlatiladigan tosh – mezon yulduzi (turkcha qora qush) unda tuzildi. Kecha bilan kunduz bir-birining ustiga qoplanadi. Bu ta’rifdan yashil leksemasining osmon ma’nosida qo‘llanganiga ham guvoh bo‘lamiz.

Tadqiqot natijalari. Ushbu ilmiy ishimizda “Devonu lug‘ati turk”dagi rang-tus sifatlari to‘plandi. Jamlangan so‘zlar bugungi kun leksemalari bilan qiyoslab chiqildi. Ushbu leksemalarning bugungi kungacha bo‘lgan tarqqiyoti o‘rganilib bugungi kundagi qo‘llanishiga ham misollar berib o‘tildi va barcha to‘plangan misollar amaliyotga tatbiq etildi.

Devonni o‘rganish jarayonida ba‘zi so‘zlar diqqatimizni tortdi. Masalan, al jo‘vo‘t, neng, oj, qo‘nur kabi rang ifodalovchi leksemalar hozirgi o‘zbek tilidan umuman chiqib ketgan. Bu leksemalar Navoiy asarlarida ham, fors tillarida ham qo‘llanmaganligi bizga ma’lum. Jumladan, Devonda qizlaq, qizg‘ul kabi leksemalar qizil rangni ifodalagan bo‘lsa, hozirga kelib bu so‘z yo‘qolib ketgan. Hozirda qizil rangni ifodalash uchun faqat qizil leksemasining o‘zi qo‘llaniladi.

Xulosa. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘oti turk” asari qomusiy asar hisoblanadi. Olimning ikkita asari bo‘lib, uning faqat “Devoni lug‘oti turk” asarigina bizga yetib kelgan, xolos. Buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘oti turk” asari Qoraxoniylar davrining noyob durdonasi hisoblanadi. U o‘lmas obida sirasiga kiradi va o‘zida davr tili, adabiyoti, tibbiyoti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, hunarmandchiligi va astronomiyasi haqidagi bilimlarni qamrab olgan. Uning asari o‘z davri uchun benihoya katta voqea bo‘lgani kabi, turkologiya fani sohasida ham birinchi namuna bo‘ldi.

Biz ilmiy izlanish davomida shu fikrga keldikki, afsuski, turkiy tildagi so‘zlarning uchdan ikki qismi bugungi kunda iste‘moldan chiqib ketgan. Bu achinarli hodisa hisoblanib, o‘zbek tili so‘z boyligining kamayishiga olib kelgan. Taklif sifatida bir qancha fikrlarni berib o‘tmoqchimiz: Avvalo, “Devonu lug‘ati turk” asaridagi mustaqil so‘z turkumiga kiruvchi barcha so‘zlarni izohli lug‘at sifatida shakllantirish, ularning ichidagi ba‘zi so‘zlarni hozirda iste‘molda bo‘lgan so‘zlarning sinonimi sifatida foydalanishga kiritish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmud Qoshg‘ariy. Devoni lug‘ati turk. Uch jildlik, Toshkent. 1960. 500-bet (Mahmud Kashgari. “Devonu lugatit Turk”. Three volumes, Tashkent. 1960. Page 500)
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I – III. Т.: Фан, 1960-1963. (Mahmud Kashgari. ”Devonu lugatit Turk” I-III.T.:fan, 1960-1963)
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III. Таржимон ва нашрга тайѐрловчи С. М. Муталлибов. – Т.: ЎзФА нашриѐти. 1963.(Mahmud Kashgari. Dictionaries of Turkic Languages (Devonu lugat it-turk). Translator, Mutallibov. S. Volume 3. – Tashkent: UzFA .1963
4. Тил ва адабиѐт таълими. – Тошкент, 2004. М.Кошғарий. Девону луғотит турк. I. Таржимон ва нашрга тайѐрловчи С. М. Муталлибов. – Т.: ЎзФА нашриѐти. 1966.(Language and literature education. - Tashkent, 2004. M. Koshgari. The dictionary is Turkish. I. Translator and publisher S. M. Mutallibov. - T.: Publishing House of UzFA. 1966.)